

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XUSHNAZAROVA MAXZUNA GULAMDJANOVNA

**O‘ZBEKISTONNING TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISHDA
HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARIDAN SAMARALI
FOYDALANISH
(Toshkent shahri misolida)**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic sciences**

Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna

O‘zbekistonning turizm salohiyatini oshirishda hunarmandchilik
mahsulotlaridan samarali foydalanish (Toshkent shahri misolida)..... 3

Хушназарова Махзуна Гуламджановна

Эффективное использование продукции ремесленничества в повышении
туристического потенциала Узбекистана (на примере города
Ташкента)..... 27

Khushnazarova Makhzuna Gulamdjanovna

Effective use of handicraft products in increasing the tourism potential of
Uzbekistan (on the example of the city of Tashkent)..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XUSHNAZAROVA MAXZUNA GULAMDJANOVNA

**O‘ZBEKISTONNING TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISHDA
HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARIDAN SAMARALI
FOYDALANISH
(Toshkent shahri misolida)**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt3386 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Aliyeva Maxbuba To'ychiyevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Alimova Guzal Alisherovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/10.12.2019.1.16.01 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "5" 09 kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shox ko'chasi, 107-B uy. Ishonch telefon raqami: 1163. Tel.: (99871) 205-06-00; faks: (99871) 207-17-30; e-mail: info@motach.uz, turizmdevon@exat.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1743 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-75, faks: (99871) 239-28-75; e-mail: tdiu@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "20" 08 kuni tarqatildi.

(2025-yil "20" 08 dagi 65 - raqamli reyestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosida bir martalik ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

U.V. G'afurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosida bir martalik ilmiy kengash kotibi,
i.f.d., professor

A.A. Eshtayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosida bir martalik ilmiy kengash
qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi,
i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon turizm industriyasida milliy madaniy merosga tayangan yo‘nalishlar – ya‘ni hunarmandchilik, xalq amaliy san‘ati va an‘anaviy qadriyatlarga bog‘liq turistik xizmatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu tendensiya, ayniqsa, xalqaro turistlar tomonidan autentiklik, individuallik va tarixiylikka bo‘lgan qiziqishning ortishi bilan izohlanadi. Bunday shart-sharoitda hunarmandchilik mahsulotlari nafaqat milliy madaniyatning tashuvchisi, balki mamlakat turizm salohiyatini oshirishda muhim iqtisodiy resurs sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jahon iqtisodiyotida turistik salohiyatni oshirishda hunarmandchilik mahsulotlaridan samarali foydalanish milliy madaniyat, an‘analar va hududiy merosni namoyon etuvchi muhim vosita sifatida xizmat qilib, turistik yo‘nalishlarning jozibadorligini oshirish va turistlar oqimini ko‘paytirishga ko‘maklashadi. Hunarmandchilik faoliyati mahalliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, aholi bandligini ta‘minlash va eksportbop noan‘anaviy mahsulotlar ishlab chiqarish orqali hududiy iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, turistik xizmatlar bilan integratsiyalashgan holda hunarmandchilik mahsulotlarini raqamli marketing platformalari orqali targ‘ib etish va sotish kichik biznes subyektlarining daromad salohiyatini oshirish, hamda mamlakatning turizm brendini shakllantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Jahonda turistik salohiyatni oshirishda hunarmandchilik mahsulotlaridan samarali foydalanishga oid ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari sifatida hunarmandchilik faoliyati va turizm industriyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish, hududiy hunarmandchilik brendlarini yaratish va ularni global turistik bozorda pozitsiyalash strategiyalarini ishlab chiqish, mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarini turistik xizmatlar bilan integratsiyalash mexanizmlarini shakllantirish, ta‘lim va innovatsiyalar orqali hunarmandlarning salohiyatini oshirish, hamda raqamli texnologiyalar asosida marketing va savdo platformalarini rivojlantirish bo‘yicha samarali modellarning ishlab chiqilishi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo‘nalishlar orqali hunarmandchilik mahsulotlari turizm orqali iqtisodiy qiymat yaratishda muhim omilga aylantiriladi.

O‘zbekistonda turizm salohiyatni oshirishda hunarmandchilik mahsulotlaridan samarali foydalanish alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimizning har bir hududida qadimiy hunarmandchilik turlari shakllangan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi UNESCOning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasiga davlat tomonidan ko‘plab islohotlar olib borilib, “Hunarmand” uyushmasi va “Ustoz-shogird” an‘analarini qayta tiklash borasidagi tashabbuslar, hunarmandchilik mahsulotlariga tashqi bozorda talab ortib borayotgani ushbu mavzuning ilmiy ham, amaliy jihatdan ham dolzarb ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, hunarmandchilik mahsulotlarini turizm sohasida samarali targ‘ib etish, ularning madaniy qadriyat sifatidagi qiymatini turizm xizmatlar tizimiga integratsiya qilish, hunarmandlarning mehnatini iqtisodiy jihatdan qadrlash, ularni turizm jarayonga jalb etish kabi masalalar ilmiy yondashuv talab qiladi. Bu orqali, hunarmandchilikni nafaqat ijtimoiy madaniy hayotning bir

qismi sifatida, balki turizm salohiyatini oshirish vositasi sifatida ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 30-apreldagi PQ-232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda ushbu sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Turizm salohiyatini oshirishda hunarmandchilik mahsulotlaridan samarali foydalanish borasida xorijiy davlatlarda bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, Susana Rachao, Ha Vy Vu, Hana Abreham, Greg Richards, Laurent Bourdeau, Maria Gravari-Barbas, Mike Robinson, Nelson Graburn, H. Nelson, Goranka Horjan, Yujie Zhu, Jorge Alexander Mora Forero, Dallen Timothy, Jorge Blasco Gallardo, Naú Silverio Niño Gutiérrez, E. De Run, Dr. Alon Gelbman, David L Hume¹ singari xorijlik olimlarning ishlari

¹ Susana Rachao. The Reengineering of Tourism Products: A Case Study of Creative Tourism in Viana do Castelo, 2013, 121 p.; Ha Vy Vu. Local handicrafts as authentic tourism souvenirs enhancing cultural values through storytelling, 2022, 52 p.; Hana Abreham. Traditional handicrafts, creativity art and their relationship with tourism marketing, 2022, 67 p.; Greg Richards. Developing and marketing crafts tourism, 1998, 32 p.; Laurent Bourdeau, Maria Gravari-Barbas and Mike Robinson. World heritage sites and tourism: global and local relations. 2018, 206 p.; Nelson Graburn, H. Nelson. Ethnic and Tourist Arts: Cultural Expressions from the Fourth World. 1997, 413 p.; Goranka Horjan. Traditional Crafts as a New Attraction for Cultural Tourism, 2024.; Yujie Zhu. Heritage and Tourism, 2015.; Jorge Alexander Mora Forero. Creative tourism based on handicrafts in the municipality of Ráquira, Boyacá, 2024.; Dallen Timothy. Heritage Tourism in the 21st Century: Valued Traditions and New Perspectives, 2006.; Jorge Blasco Gallardo. The Touristic Art of Memory, 2022, Naú Silverio Niño Gutiérrez. Tourist focus of handmade souvenirs: two markets case of Acapulco Enfoque turístico de los souvenirs artesanales: caso de dos mercados de Acapulco, 2020.; E. De Run. Why Tourists Purchase Souvenirs., 2004.; Dr. Alon Gelbman, Heritage and cultural tourism: The present and future of the past, 2009. David L Hume. Tourism Art and Sourvenirs: The Material Culture of Tourism – Introduction, 2013, 240 p.

alohida ahamiyat kasb etadi. Bu olimlarning tadqiqotlarida turizm hunarmandchilik markazlar faoliyatining rivojlanishi, hunarmandchilik mahsulotlarining turizm rivojlanishiga qo'shadigan hissasi, turizmning hunarmandchilik rivojiga qiladigan ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri hamda hunarmandchilik mahsulotlari sifati nazariy va uslubiy jihatdan o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlarida turizm salohiyatini oshirishda hunarmandchilik mahsulotlaridan samarali foydalanishning nazariy hamda uslubiy jihatlari M.V.Vasilyeva, O.V.Kruteeva, O.B.Dubova, T.Tichaava, P.Ponimin, T.Tichaava va M.Chamboko-Mpotaringe, L.V.Staxova, A.G.Butuzov, V.S.Senin, N.V.Yagodinskaya, V.V.Boxanov, M.V. Sokolova² singari olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda olimlar tomonidan turizm mahsulotlar va xizmatlar tadqiq etilgan hamda soha rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholashga e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda turizm sohasi, jumladan, turizmning turli tarmoqlarini rivojlantirish bilan bog'liq muammolarini A.M.Abduvohidov, A.A.Eshtayev, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, R.G.Abdullayeva, Z.A.Xamidova, B.Sh.Safarov, M.T.Alimova, Sh.S.Sayfutdinov, S.Sh.Xalilov, A.Usmonov, I.Kodirov³ singari olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

² M.V.Васильева. Формирование и развитие предпринимательской деятельности в сфере художественных промыслов: на примере Псковской области. 2008, 206с.; О.В.Крутеева. Народные художественные промыслы Урала и их сохранение в современных социокультурных практиках. 2019, 133с.; Дубова О.Б. Искусство и ремесло. 2020, 80 с.; Т.Тичаава. Факторы, влияющие на успех местного ремесленного туристического бизнеса. 2024; П. Понимин. Разнообразие керамических изделий для туристических сувениров: местная культура как идея для творчества и производства. <https://doi.org/10.31763/viperarts.v3i1.276>, 2021; Т.Тичаава, М.Чамбоко-Мпотаринге. Факторы, влияющие на успех местных предприятий в сфере ремесленного туризма. Бюллетень географии. Социально-экономическая серия. <https://doi.org/10.12775/bgss-2024-0026>. 2024; Ф. Ли. Сувениры в исследованиях в области туризма: обзор литературы и перспективы на будущее. Критика туризма: практика и теория. <https://doi.org/10.1108/trc-09-2022-0022>, 2023; Людмила Вячеславовна Стахова. Основы туризма. Учебник для вузов. 328, 2022; А. Г. Бутузов. Этнокультурный туризм / А.Г. Бутузов. - М.: КноРус, 2016. - 248 с. В. С. Сенин, Туризм. Мини-словарь / В.С. Сенин. - М.: Финансы и статистика, 2018. - 217 с. Страноведение. ОАЭ, Япония, Китай. - М.: Книгодел, 2017. - 262 с. Н. В. Ягодинская, Культурно-исторические центры России / Н.В. Ягодинская, С.А. Малышкин. - М.: Академия, 2018. - 272 с. В.В. Боханов Организационные и экономические аспекты развития историко-культурного туризма в регионе (на примере Смоленской области): автореф. дис. канд. экон. наук: 08.00.05. - М, 2007. Соколова М.В. Туризм как культурно-исторический феномен: автореф. дис. ... докт. пед. наук: 24.00.01. - М, 2007.

³ A.M.Abduvohidov. Barqaror turizmni rivojlanishi. – darslik. -T., Iqtisodiyot, 2024-212b.; Eshtaev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (o'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida). Doctor of science dissertatsiya avtoreferati –Samarqand. 2019.; Alieva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlar sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (o'zbekiston Respublikasi misolida) Doctor of science dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2019.; Norchaev A.N. Замонавий туризм инфратузилмасининг шаклланиш ва ривожланиш тенденциялари. Iqt.fan.doktori. diss. – Т., 2021. - 136 b.; R.G.Abdullayeva. Hunarmandchilik faoliyatini tadbirkorlikni kengaytirish orqali rivojlantirishning nazariy asoslarini takomillashtirish. i.f.d. (PhD) dissertatsiyasi, T.; 2019-164b.; Z.A.Xamidova. Xunarmandchilik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning zamonaviy va retrospektiv jihatlari (Amir Temur davri misolida) i.f.d. (PhD) dissertatsiyasi, T.; 2020-164b.; B.Sh.Safarov. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovasion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2016. - 254 b.; M.T.Alimova. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendentsiyalari (Samarqand viloyati misolida): iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2017. - 265 b.; Sh.S.Sayfutdinov O'zbekistonda turizm sohasini barqaror rivojlantirish strategiyasi. Iqtisodiyot fanlari doktori (PhD) diss.avt.-Toshkent, 2022-64b.; S.Sh.Xalilov. Milliy turizm tarmog'ining raqobat ustunliklarini rivojlantirish yo'nalishlari va strategiyalarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.).-Tashkent, 2023-50 b.; B.Sh.Safarov A.Usmonov, Badiiy hunarmandchilik bilan bog'liq nomoddiy madaniy

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan olimlar turizm sohasini rivojlantirish va faoliyatni boshqarish jarayonlarini takomillashtirish, turizm salohiyatini yanada oshirish borasida ilmiy-nazariy tadqiqotlarni amalga oshirib, turizm faoliyatni boshqarish jarayonlarini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shganlar.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida "Tuproqqal'a etno-muzeyi" ni tashkil qilish mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonning turizm salohiyatini oshirishda hunarmandchilik mahsulotlaridan samarali foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turizm mahsulotlari tushunchalari, atamalari hamda o'ziga xos asosiy xususiyatlarini o'rganish;

turizm va hunarmandchilik mahsulotlari sohasining xorij tajribasi va ulardan foydalanish afzalliklarini tadqiq etish;

turizm va hunarmandchilik mahsulotlari sohasida mavjud muammolarni tahlil qilish va muammolarning turizm rivojlanishiga ta'sirini aniqlash;

turizm markazlarida faoliyat olib borayotgan hunarmandlarning mahsulotlari bo'yicha statistik ma'lumotlarini yig'ish, so'rovnomalar hamda intervyularni o'tkazib, hunarmandchilik mahsulotlarining turizm rivojidagi ahamiyatini aniqlash;

hunarmandchilik mahsulotlarining jozibadorligini oshirishda davlatning ishtirok etish imkoniyatlarini o'rganish hamda hunarmandchilikni rivojlantirishni qo'llab-quvatlashning institutsional tuzilmasi ishlab chiqish;

Toshkent shahar turizm markazlarida faoliyat olib borayotgan hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning hozirgi holatini o'rganish hamda tahlil qilish natijasida ularning turizm salohiyatini oshirishdagi o'rni va rivojlanish istiqbollarini aniqlash;

hunarmandchilik markazlarida xorijlik turistlarga xizmat ko'rsatishning sifatini oshirish va hunarmandchilik mahsulotlarini targ'ib qilish yo'llarini ishlab chiqish;

turizm salohiyatni oshirishda hunarmandchilik mahsulotlariga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib, Toshkent shahrida faoliyat olib borayotgan hunarmandchilik subyektlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini turizm salohiyatini oshirishda hunarmandchilik mahsulotlaridan samarali foydalanishni tashkil etishda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

meroslar. Farg'ona davlat universiteti 1 (2023): 66-66.; I. Kodirov, O'zbekistondagi hunarmandchilik an'analari va ularning rivojlanishi. Ijodkor o'qituvchi 4.42 (2024): 62-64.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli, iqtisodiy-statistik tahlil, ijtimoiy so‘rovnoma, interviyu, ekonometrik modellashtrish, analiz va sintez kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “madaniy-kreativ turizm” tushunchasining iqtisodiy mazmuni sayohatchilarning turizm obyekti tashrifi davomida milliy-tarixiy an‘analar, mintaqaviy madaniyat, urf-odatlar va madaniy merosni namoyish etuvchi hunarmandchilik mahsulotlari, esdalik sovg‘alari, suvenirlar, noyob, eksklyuziv mahsulotlarini yaratish jarayonlarini kuzatish va bevosita ishtirok etish orqali turizm salohiyatni oshirish jihatidan takomillashtirilgan;

turizm sayohat davomida mahalliy hunarmandlar bilan bevosita muloqot, jonli tajriba va mahsulot xaridi imkonini beruvchi, hunarmandchilikni milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida namoyon etuvchi “Handicraft Walking Tour” formatida Toshkent shahrining “Xasti Imom – Eski shahar – Suzuk ota – Abulqosim madrasalari hunarmandlar maskani” yo‘nalishida “hunarmandchilik turlarini” tashkil etish taklifi asoslangan;

Toshkent shahri hunarmandchilik salohiyati asosida “merosiy iste‘mol tuzilmasi”ni turizm iqtisodiyotiga integratsiya qilish orqali hunarmandchilik mahsulotlarini iqtisodiy aylanmaga samarali jalb etish modeli hunarmandchilik faoliyatini hududiy brendlash, turizm xizmatlar bilan uyg‘unlashtirish va iste‘mol bozorlarini diversifikatsiyalash orqali yangi konseptual yondashuv asosida takomillashtirilgan;

O‘zbekiston iqtisodiyotida turizm tarmog‘i bilan hunarmandchilikning integratsiyalashuvining barqaror o‘rta ta‘sirini ifodalovchi ekonometrik model asosida mamlakatda hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 2030-yilgacha prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turizm sohasidagi turizm mahsulotlari turlari, turizm mahsulotlarining asosiy xususiyatlari, turizm sohasining rivojlanish holati va o‘zgarish tendensiyalari tahlili asosida hududning turizm salohiyati baholangan;

“madaniy-kreativ turizm” tushunchaning mohiyatini asoslash orqali takomillashgan ta‘rif taklif etilgan;

turizm bozorida hunarmandchilik mahsulotlarining o‘ziga xos xususiyatlari, hunarmandchilikning tasniflanishi, xalq hunarmandchiligi, hunarmandchilikning asosiy yo‘nalishlari, hunarmandchilik va turizm o‘rtasidagi bog‘liqlik omillari aniqlangan;

Toshkent shahrining turizm salohiyatida hunarmandchilik mahsulotlarining holati va uning tahlili anketa so‘rovnomalar hamda interviyu usullari orqali turizm sohasida hunarmandchilikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashning merosiy istemol tuzilmasi ishlab chiqilgan;

hunarmandchilikni milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida namoyon etuvchi “Handicraft Walking Tour” formatida Toshkent shahrining “Xasti Imom – Eski shahar – Suzuk ota – Abulqosim madrasalari hunarmandlar maskani” yo‘nalishida “hunarmandchilik turlarini” tashkil etish taklifi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo‘llanilgan nazariy va uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi axborotlar bazasining rasmiy manbalari, jumladan, Ekologiya vazirligi huzurida Turizm qo‘mitasi, Hunarmand uyushmasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlari manbalaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning amalda sinovdan o‘tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan ma’qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqotda ishlab chiqilgan nazariy va uslubiy taklif hamda tavsiyalar turismda hunarmandchilik sohasi faoliyatni rivojlantirishi va mamlakatimizda turizm sohasining samarali yo‘lga qo‘yilishi, turizm mahsulotlar bozorida hunarmandchilik mahsulotlari raqobatbardoshligini ta’minlashga qaratilgan, mamlakatimiz turizm sohasida hunarmandchilik mahsulotlari sotishda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida iqtisodiy samaradorlikni oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekistonning turizm salohiyatini oshirishda hunarmandchilik mahsulotlaridan samarali foydalangan holda, hududlardagi turizm markazlarini rivojlantirishga oid innovatsiyalarni qo‘llash samaradorligi oshirish mumkinligi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonning turizm salohiyatini oshirishda hunarmandchilik mahsulotlaridan samarali foydalanish (Toshkent shahri misolida) bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra, “madaniy-kreativ turizm” tushunchasining iqtisodiy mazmuni sayohatchilarning turistlik obyektga tashrifi davomida milliy-tarixiy an‘analar, mintaqaviy madaniyat, urf-odatlar va madaniy merosni namoyish etuvchi hunarmandchilik mahsulotlari, esdalik sovg‘alari, suvenirlar, noyob, eksklyuziv mahsulotlarini yaratish jarayonlarini kuzatish va bevosita ishtirok etish orqali turizm salohiyatni oshirish jihatidan takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy nazariy-uslubiy materiallardan oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun tavsiya etilgan “Xalqaro turizm menejmenti” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida turizm salohiyatni oshirishda hunarmandchilik mahsulotlaridan samarali foydalanish, hunarmandchilik mahsulotlari orqali turizmni rivojlantirish, turistlarga hunarmandchilik mahsulotlarini targ‘ib qilish jihatidan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

turizm sayohat davomida mahalliy hunarmandlar bilan bevosita muloqot, jonli tajriba va mahsulot xaridi imkonini beruvchi, hunarmandchilikni milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida namoyon etuvchi “Handicraft Walking Tour” formatida Toshkent shahrining “Xasti Imom – Eski shahar – Suzuk ota – Abulqosim madrasalari hunarmandlar maskani” yo‘nalishida “hunarmandchilik turlarini” tashkil etish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 18-iyuldagi PF-102-son “O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qovmitasining 2025-yil 27-may 03-10-17-4466-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "hunarmandchilik turlarini" tashkil etish orqali turizm sayohat davomida sayyohlarning mahalliy hunarmandlar bilan bevosita muloqot, jonli tajriba va mahsulot xaridi imkoni yaratilgan;

Toshkent shahri hunarmandchilik salohiyati asosida "merosiy iste'mol tuzilmasi"ni turizm iqtisodiyotiga integratsiya qilish orqali hunarmandchilik mahsulotlarini iqtisodiy aylanmaga samarali jalb etish modeli hunarmandchilik faoliyatini hududiy brendlash, turizm xizmatlar bilan uyg'unlashtirish va iste'mol bozorlarini diversifikatsiyalash orqali yangi konseptual yondashuv asosida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyuldagi PF-91-son "Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ko'rsatilgan chora-tadbirlarni shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qovmitasining 2025-yil 27-may 03-10-17-4466-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hunarmandchilik mahsulotlarini iqtisodiy aylanmaga samarali jalb etish bo'yicha chora-tadbirlar rejalarini amalga oshirish imkoni yaratilgan.

O'zbekiston iqtisodiyotida turizm tarmog'i bilan hunarmandchilikning integratsiyalashuvining barqaror o'sishga ta'sirini ifodalovchi ekonometrik model asosida mamlakatda hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 2030-yilgacha ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyuldagi PF-91-son "Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ko'rsatilgan chora-tadbirlarni shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qovmitasining 2025-yil 27-may 03-10-17-4466-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekiston iqtisodiyotida turizm tarmog'i bilan hunarmandchilik faoliyatining istiqboldagi rivojlanishini ta'minlashda asosiy faoliyat ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari aks etgan 5 ta ish aprobatseyadan o'tkazilgan. Jumladan, 3 tasi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda, 2 tasi respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatseyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Ularning 3 tasi respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlari materiallari to'plamlarida, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 8 ta, jumladan, 3 tasi respublika jurnallarida va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Turizm mahsulotlarini ishlab chiqishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida turizm mahsuloti tushunchasi, ularning turlari, turizm bozorida hunarmandchilik mahsulotlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda hunarmandchilik mahsulotlaridan samarali foydalanishda xorijiy tajribadan foydalanish afzalliklari yoritilgan.

Turizm mahsulotlari tushunchasi keng va ko'p qirralidir. Ular turistlarni jalb qilish, sayohat tajribasini boyitish va unda qatnashuvchilarga eng yuqori darajada qoniqish berish uchun yaratilgan mahsulotlar va xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Turizm mahsulotlari – bu turistlarga taklif etiladigan va ularning ehtiyojlari va istaklarini qondirishga qaratilgan har qanday mahsulot yoki xizmat hisoblanadi. Turizm mahsulotlari turizm sanoatining muhim qismi bo'lib, ular turizm korxonalari tomonidan yaratiladi va bozorda taklif etiladi.

Turizm mahsulotlarining asosiy xususiyatlari 1-rasmda keltirilgan. Turizm mahsulotlari turistlarning talab va istaklariga mos kelishi, ularning sayohatdan maksimal qoniqish olishlariga yordam berishi lozim. Turizm mahsulotlarining har xilligi va sifati turizm sohasining rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

Turizm mahsulotlarni ikki turga bo'lib o'rganishimiz mumkin. Birinchisi maxsus turizm mahsulotlari, bularga hunarmandchilik mahsulotlar, suvenirlar, turizm kartalar va boshqalar kiradi. Ikkinchisi, maxsus bo'lmagan turizm mahsulotlar bo'lib, bularga maishiy texnika, kiyimlar va boshqalar kiradi.



1–rasm. Turizm mahsulotlarining asosiy xususiyatlari⁴

Hunarmandchilik davlatlar taraqqiyoti va iqtisodiyotida katta rol o'ynagan va o'ynamoqda. Hunarmandlar ish o'rinlari yaratuvchi va mahalliy tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi asosiy tijorat sohasidir. Turizm va hunarmandchilik bir-birini qo'llab-quvvatlovchi va boyituvchi sohalardir.

Hunarmandchilik iqtisodiy imkoniyatlar yaratish va o'ziga xos madaniy tajribalarni taqdim etish orqali turizm sohasiga katta hissa qo'shadi. Urf-odatlar va badiiy ifodalar haqida tushuncha berib, u tashrif buyuruvchilar bilan mahalliy turmush tarzi o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi.

Mehnat taqsimoti jarayonida bilan hunarmandchilikning uch asosiy turi shakllangan bo'lib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Uy hunarmandchiligi
2. Buyurtma asosida mahsulot ishlab chiqaruvchi hunarmandchilik
3. Bozor uchun mahsulot tayyorlovchi hunarmandchilik

An'anaviy mehnat taqsimoti asosida shakllangan hunarmandchilikning uch asosiy turidan kelib chiqqan holda ularning qatoriga kreativ turizm bilan bog'liq yangi shakl – madaniy-kreativ turizm turi taklifi kiritildi.


Madaniy-kreativ turizm modeli asosida hunarmandchilik mahsulotlari orqali turizm taassurotni kuchaytirish g'oyasini ilgari surgan holda, 1-jadvalda keltirilgan xorijiy olimlar Greg Richards va Viktoriya Petrova kreativ turizmga bergan ta'riflardan kelib chiqib, quyidagicha ta'rif berib takomillashtirildi:

⁴ Muallif ishlanmasi

**Kreativ turizm tushunchasiga turizm sohasidagi etakchi olimlar,
tadqiqotchilar tomonidan berilgan ta'riflar⁵**

Xorijiy va mamlakatimiz tadqiqotchi-olimlari	
Greg Richards	Kreativ turizm moslashuvchan va haqiqiy tajriba imkoniyatlarini taklif etadi, biroq u shu bilan birga ijodiy ajriotaj va kundalik hayotning tijoratlashuvi kabi xatarlarni ham o'z ichiga oladi.
Nancy Duxbury	Kreativ turizm tashabbuslari mahalliy o'zlikni mustahkamlash, hamkorlik va tajriba almashinuvini rag'batlantirish orqali jamoalarda yangi g'oyalarni ilhomlantirishi hamda madaniy faollik va tiklanishga hissa qo'shishi mumkin.
Viktoriya Petrova	Kreativ turizm — bu sayohatchilar tomonidan san'atga faol o'rganish, madaniy meros yoki borilayotgan joyning boshqa madaniy xususiyatlari bilan tanishish orqali tajriba olishga qaratilgan turizm turidir.

Madaniy-kreativ turizm - bu turistlarni mahalliy madaniyat, hunarmandchilik, san'at va an'analar bilan faol va ijodiy ravishda tanishtirishga qaratilgan turizm turi bo'lib, u orqali turistlar nafaqat hunarmandchilik mahsulotlari, esdalik sovgalari, suvenirlar, noyob, eksklyuziv mahsulotlarni yaratish jarayonlarini kuzatish va bevosita ularni yaratish jarayonida ishtirok etadi.⁶



2-rasm. Madaniy-kreativ turizmning tasniflanishi⁷

2-rasmda madaniy-kreativ turizmning tasniflanishi keltirilgan bo'lib, bunda madaniy-kreativ turizm - bu zamonaviy turizmning yangi, mazmunan boy va ilmiy

⁵ Muallif tomonidan mualliflarning ta'riflari jamlangan

⁶ Muallif tomonidan berilgan ta'rif

⁷ Muallif ishlanmasi

asoslangan yoʻnalishlaridan biri boʻlib, u anʻanaviy madaniy turizmga nisbatan turistlarni passiv kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida jalb etishga qaratilgan. Bu yoʻnalish orqali turistlar mahalliy madaniyat, hunarmandchilik, sanʼat va urf-odatlar bilan bevosita tanishish imkoniga ega boʻladilar hamda ijodiy jarayonda ishtirok etish orqali taassurotlarni chuqurroq his etishadi.

Madaniy-kreativ turizm, avvalo, nomoddiy madaniy merosni faol saqlash va uning amaliyotda yashovchanligini taʼminlashning samarali vositasi hisoblanadi. Chunki bu turdagi turizm mahalliy hunarmandlar, ijodkorlar va anʻanaviy bilim egalari ishtirokida kechadi va ularning bilimi, mahorat va koʻnikmalari sayyohlarga bevosita oʻrgatiladi. Natijada, bu bilim va koʻnikmalar kelajak avlodga amaliy tarzda uzatiladi.

Shu bilan birga, madaniy-kreativ turizm hududiy brendni yaratish va mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir hududga xos boʻlgan madaniy unsurlarni (naqqoshlik, zardoʻzlik, kulolchilik va boshqalar) turizm mahsulotga aylantirish orqali bu hududning turizm jozibadorligi oshadi va u maʼlum bir estetik va identifikatsiya qobiliyatiga ega brend sifatida shakllanadi.

Madaniy-kreativ turizm turistga nafaqat maʼlumot, balki chuqur hissiyot va shaxsiy tajriba taqdim etadi. Turistlar oʻzlari yaratgan buyumni olib ketish orqali nafaqat suvenirga, balki oʻz mehnatiga va mahalliy madaniyat bilan yuzma-yuz boʻlgan xotiraga ega boʻladilar. Bu esa turizm sohasidagi xizmatlar qiymatini oshirib, ilmiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yuqori samaradorlikni taʼminlaydi.

3-rasmda keltirilgan madaniy va madaniy-kreativ turizmning oʻziga xos xususiyatlarining bir biridan farqini koʻrish mumkin. Jahon amaliyoti madaniy-kreativ turizmning turli xil shakllari va unga xos xususiyatlarini namoyon etadi.




3-rasm. Madaniy turizm va madaniy-kreativ turizmning oʻziga xos xususiyatlari⁸

⁸ Muallif ishlanmasi

O‘zbekistonda ham ushbu tajribalarni moslashtirib, Toshkent shahrida hunarmand ustaxonalarida turistlar uchun interaktiv master-klasslar tashkil etish orqali madaniy-kreativ turizmni rivojlantirish mumkin. Naqqoshlik, zarduzlik, keramika, miniatyura va kitob bezaklari kabi hunarmandchilik turlarini amaliy tarzda o‘rgatish turistlar uchun nafaqat bilim, balki bevosita ijodiy tajriba berish imkonini yaratadi. Shuningdek, har bir turizm mehmon o‘z qo‘li bilan yaratgan “ijodiy meros suvenirini” tayyorlash va uni saqlab qolish huquqiga ega bo‘lish orqali turizm taassurotlar yanada mustahkamlanadi hamda mahalliy madaniy merosni asrashga qo‘shimcha hissa qo‘shiladi.

Bu tajribalar O‘zbekistonning turizm salohiyatini oshirishda nomoddiy va moddiy madaniy merosni birlashtirish, shu bilan birga turizm sohasida yangi va samarali yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi.


Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonning turizm salohiyatida hunarmandchilik mahsulotlarining holati va uning tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida hunarmandchilik mahsulotlarining jozibadorligini oshirishda davlatning ishtirok etish imkoniyatlari, hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning hozirgi holati va tahlili hamda turizm salohiyatni oshirishda hunarmandchilik mahsulotlariga ta’sir qiluvchi omillarning iqtisodiy tadqiqotlari yoritib berilgan.




4-rasm. Respublika “Hunarmand” Uyushmasi a’zolari soni⁹

Hunarmandchilik sohasi qadimdan bizgacha etib kelgan madaniy merosdir. Bugungi kungacha bu sohada faoliyat olib borayotgan hunarmandlarning soni 4-rasmida berilgan ma’lumotlardan shuni ko‘rish mumkinki, hunarmandlar uyushmasi tizimi orqali ro‘yhatdan o‘tgan uyushma a‘zolari soni – 106222 ta, tizimda uyushma a‘zolarining umumiy soni – 27980 ta va turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar umumiy soni – 1334 tani tashkil etadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar umumiy soni juda ham kam, atiga 1% tashkil qiladi.

⁹ “Hunarmand” Uyushmasi ma’lumotlari natijasida muallif ishlanmasi



5-rasm. Sayyohlar tashrifi va xaridlarni oshirishga ta'sir qiliuvchi omillar tahlili¹⁰



6-rasm. So'rovnoma natijasi asosida sayyohlarni jalb qilishdagi to'siqlar tahlili¹¹

5-rasmda ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning turizm salohiyatini oshirishda hunarmandchilik mahsulotlaridan samarali foydalanish mavzusidagi so'rovnoma uchun Toshkent shahridagi 4 ta turizm hunarmandchilik markazlari tanlab olindi. U yerdagi hunarmandlar bilan suhbatlashganda ko'plab masalalarni sayyohlar tashrifi va xaridlarini oshirish uchun muhim ekanligi haqida gapirib o'tishdi.


6-rasmda keltirilganidek, hunarmandchilik markazlariga tashrif buyuradigan sayyohlar bilan ishlashda hunarmandlar tomonidan turli hil muammolar va qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shu masala bo'yicha hunarmandlardan so'ralganda, 32,4 % hunarmand xorijiy tilni bilmasliklari va yuzasidan muammoga duch kelishlarini aytib o'tishdi. Muammolardan yana biri, to'lov shakli bo'lib, bu muammo bo'yicha 30,6% hunarmand duch kelishini aytishdi. Hunarmandchilik markazlarida to'lov terminallarining yo'qligi, yoki hunarmandlarda VIZA kartalarining mavjud emasligi, xorijiy sayyohlarda esa asosan VIZA karta bo'lganligi sabab, hunarmandlar uchun bu muammo dolzarb ekanligi aytib o'tildi.

Tadqiqot natijasida olib borilgan xorijiy va mahalliy so'rovnoma natijasida xorijlik 300 ga yaqin va mahalliy 200 ga yaqin turistlar ishtirok etishdi.

7-rasmga ko'ra hunarmandchilik mahsulotlarini mahalliy va xorijiy turistlar asosan bozorlardan sotib olishayotganini ko'rish mumkin. Mahalliy turistlar myzeylardan hunarmandchilik mahsulotlarini sotib olishlari bo'yicha eng kam kovrsatkich berilgan.


¹⁰ Muallif ishlanmasi

¹¹ Muallif ishlanmasi



7-rasm. Xorijiy va mahalliy turistlarning hunarmandchilik mahsulotlarini qayerdan sotib olishlari haqidagi ma'lumotlar¹²

8-rasmda shuni ko'rish mumkinki, hunarmandchilik mahsulotlari ichida eng ko'p sotiladigani xorijiy turistlar uchun to'qimachilik bo'lsa, mahalliy turistlar kulolchilik mahsulotlari sotib olinishi aniqlandi.




8-rasm. Xorijiy va mahalliy turistlarning hunarmandchilik mahsulotlarini qanday turlarini sotib olishlari haqidagi ma'lumotlar¹³

O'zbekistonning turizm salohiyatini oshirishda hunarmandchilik mahsulotlaridan samarali foydalanish mavzusidagi so'rovnoma uchun Toshkent shahridagi 4 ta turizm hunarmandchilik markazlari tanlab olinganligi va u yerdagi

¹² https://docs.google.com/forms/d/12lZMRXYMG6q5XiBumEet3AYgM_SOClPYWHJFUNrflrk/edit#responses

¹³ https://docs.google.com/forms/d/12lZMRXYMG6q5XiBumEet3AYgM_SOClPYWHJFUNrflrk/edit#responses

asosiy muammo bu markazlarining ayrimlari turmarshrutlarga qo‘shilmaganligi, ya’ni turmarshrutdan chiqarib yuborilgani haqida gapirildi.



9-rasm. Hunarmandchilik markazlarining yo‘nalish xaritasi¹⁴

Shundan kelib chiqqan holda, turizm sayohat davomida mahalliy hunarmandlar bilan bevosita muloqot, jonli tajriba va mahsulot xaridi imkonini beruvchi, hunarmandchilikni milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida namoyon etuvchi “Handicraft Walking Tour” formatida Toshkent shahrining “Xasti Imom – Eski shahar – Suzuk ota – Abulqosim madrasalari hunarmandlar maskani” yo‘nalishida “hunarmandchilik turlarini” tashkil etish taklifi asoslandi.

9-rasmda hunarmandchilik markazlarining yo‘nalish xaritasi keltirilgan bo‘lib, unda hunarmandchilik turlarini tizimli ravishda tashkil etish maqsadida “Handicraft Walking Tour” tur mashrut ishlab chiqildi. Tur mashrut uchun Toshkent shahrining 4 ta hunarmandchilik markazlari tanlab olingan.

Yo‘nalish xaritasi: Hazrati Imom (Xasti Imom) majmuasi → Eski shahar → Suzuk Ota madrasasi → Abulqosim madrasasi

1. Hazrati Imom majmuasi – XVI–XX asrlarga oid betakror me’moriy yodgorliklar majmuasi bilan sayohatni boshlaymiz. Bu yerda qadimiy masjid, madrasa, kutubxona va hunarmandchilik mahsulotlar tarixiy muhitni o‘zida mujassam etadi.

¹⁴ Muallif ishlanmasi

2. Keyin piyoda Eski shahar ko'chalari orqali mashhur Chorsu bozoriga yo'l olamiz. Qadimiy karvon yo'llarining ruhi saqlanib qolgan bu maskanda rang-barang ziravorlar, milliy taomlar va hunarmandchilik mahsulotlarini ko'rish mumkin.

3. Chorsu hududida joylashgan Suzuk Ota majmuasiga tashrif buyuramiz. Bu maskan o'zining hunarmandlar markazi, tarixiy va ma'naviy ahamiyati bilan sayohatni yanada boyitadi.

4. Marshrutimizning yakuniy manzili – Abulqosim madrasasi, markaziy Furqat ko'chasida joylashgan. Bu madrasa nafaqat tarixiy meros, balki bugungi kunda hunarmandchilik markazi sifatida ham faoliyat yuritmoqda.

Shu tariqa, sayohatchilar Toshkentning tarixiy yodgorliklari, diniy-ma'naviy maskanlari va mahalliy madaniy muhitini bir yo'nalishda tomosha qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Dessertatsiyaning **“O'zbekistonning turizm salohiyatini oshirishda hunarmandchilik mahsulotlaridan samarali foydalanish yo'llari”** deb nomlangan uchinchi bobida O'zbekistonning turizm salohiyatini oshirishda raqobatbardosh hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqish, hunarmandchilik mahsulotlarini xalqaro va mahalliy bozorlarda targ'ib qilish imkoniyatlari hamda turizm salohiyatni oshirishda hunarmandchilik mahsulotlarining istiqbollari amalga oshirilgan.

Turizmni rivojlantirish jadal ravishda amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan turizm sohasini rivojlantirish uchun ko'plab imkoniyatlar berilmoqda. Lekin, turizmni rivojlantirish faqat davlatga borib taqalmasligini yahshi bilamiz. Shundan kelib chiqqan holda turizm sohasida hunarmandchilikni rivojlantirish qo'llab-quvvatlashning merosiy iste'mol tuzilmasi ishlab chiqildi.

10-rasmda shuni ko'rish mumkinki, davlatning qo'llab-quvvatlovi asosida turizm salohiyatida hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan merosiy iste'mol tuzilmasi shakllangan.


